ARAB TILSHUNOSLIGIDA MAONIY ILMIGA XOS QARASHLAR

ВЗГЛЯДЫ НА НАУКУ МААНИ В АРАБСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

VIEWS ON MAANI SCIENCE IN ARABIC LINGUISTICS

RUSTAMIY SALIMA,
ORIENTAL UNIVERSITY,
Professor of the Department of Oriental Languages,
Doctor of Philological Science.
salimarustamiy@gmail.com

DOI: 10.47980/IIAU/2024/4/1

Annotatsiya: *Dunyoda o‘rta asr olimlarining tilga oid nazariy va amaliy masalalarni qamrab olgan tilshunoslikka oid qarashlari adab ilmlari tarkibida lug‘at (leksikologiya), sarf (morfologiya), nahv (sintaksis), balog‘at ilmlari kabi sertarmoq va murakkab ilmiy nazariyalar majmui sifatida ravojlanib, uning o‘rganish ob’ekti til, til hodisalari va til ifodasi bo‘lgan nutqdan iborat bo‘ldi. Til – murakkab ramzlar tizimi sifatida baholandi. Til hodisalarini nazariy o‘rganish jarayonlarida G‘arb lingvistika maktablari tilning kommunikativ, kognitiv, nominativ va akkumulyativ funksiyalariga e’tibor qaratdi, shu bois G‘arb olamida sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, antropolingvistika kabi sohalar rivojlandi. Islom uyg‘onish davrida tilshunoslarni ko‘proq tilning emotsional-ekspressiv, ya’ni volyuntativ funksiyasi qiziqtirib, til hissiy-ruhiya ta’sir vositasi sifatida chuqur o‘rganildi. Natijada tilning estetik ta’siri va badiiy tuzilishi haqidagi nazariy qarashlar arab dunyosida balog‘at ilmining vujudga kelishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Bugungi kunda jahon tilshunosligida balog‘at ilmining tarixi, tuzilishi, ahamiyati, istilohlar ma’nosi, badiiy vositalarning qo‘llanish usullarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Tadqiqotchilar oldida balog‘at ilmining nazariy asoslari, uning adab ilmida tutgan mavqei, zamonaviy usullar yordamida balog‘at ilmlari tipologiyasini amalga oshirish vazifasi turgan bo‘lib, uning yechimi ilmiy-adabiy qarashlar tizimini anglashga xizmat qiladi.*

Maoniy ilmida kalomning xabar (خبر) va insho (إنشاء) xususiyatlari talqini, musnad (مسند) va musnad ilayhi (مسند إليه) munosabatlari va ularning ifodalanish tarzlari, qasr (قصر) usulining ma’no xoslash xususiyatlari, fasl (فصل) va vasl (وصل) usullarida stilistik va semantik bog‘lanish tartibi, ma’noni iyjoz (إيجاز), itnob (إطناب), musovat (مساواة) usullarida shakllantirish xususiyatlari balog‘at ilmi haqidagi qarashlar asosida tadqiq qilingan. Maoniy ilmida kalomning musnad va musnad ilayhi ruknlari, ularning xossalari haqidagi to‘liq ma’lumot beriladi. Maqolada maoniy ilmi haqida yuqorida ta’kidlangan xabar, insho, musnad va musnad ilayhi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *til, ma’no, balog‘at ilmi, semantika, xabar, insho, musnad, musnad ilayh.*

Аннотация: *В мире лингвистические взгляды, охватывающие теоретические и практические вопросы языка, развивались в структуре наук адаб как набор многогранных и сложных научных теорий, таких как лугат (лексикология), сарф (морфология), нахв (синтаксис), балагат. Объектом изучения стали язык, языковые явления и речь как выражение языка. Язык рассматривался как система сложных символов. В рамках теоретических исследований языковых явлений западные лингвистические школы сосредоточились на коммуникативных, когнитивных, номинативных и аккумулятивных функциях языка, в результате чего в западном мире развивались такие области, как социолингвистика, психолингвистика, этнолингвистика и антропологическая лингвистика. В средневековой восточной лингвистике учёные в основном интересовались эмоционально-экспрессивной, то есть волюнтативной функцией языка, исследуя его как средство эмоционального и психологического воздействия. В результате теоретические взгляды на эстетическое воздействие языка и его художественную композицию стали основой для создания науки балагат в арабском мире. Сегодня в мировой лингвистике растёт интерес к истории, структуре, значению, терминологии и методам применения художественных средств науки балагат. Исследователи сталкиваются с задачей разработки научных основ науки балагат, оценки её состояния в науке адаб, реализации типологии наук балагат с использованием современных методов, решение которой будет способствовать пониманию системы научных и художественных взглядов наших предков.*

*Наука ма‘āni включает в себя интерпретацию характеристик слова как ḫabar (خبر) и ’in**š**ā’ (إنشاء), изучение отношений между musnad (مسند) и musnad ’ilayhi (مسند إليه) и способами их выражения, особенности метода qaṣr (قصر) для уточнения смысла, порядок стилистических и семантических связей в методах faṣl (i) и waṣl (وصل), а также особенности формирования мыслей через методы ’iyjāz (إيجاز), ’iṭnāb (إطناب), musāwāt (مساواة), изученные на основе научных взглядов науки балагат.*

*В науке ма‘āni представлена детальная информация о musnad и musnad ’ilayhi, а также их особенностях. В статье анализируются вопросы, связанные с наукой ма‘āni, такие как ḫabar, ’in**š**ā’, musnad и musnad ’ilayhi.*

Ключевые слова: *язык, смысл, наука балагат, семантика, ḫabar, ’in**š**ā’, musnad, musnad ’ilayhi.*

Annotation: *In the world of linguistics, theoretical and practical views concerning language have developed within the framework of the sciences of ‘adab, forming a complex set of multibranch scientific theories. These theories include fields such as luğat (lexicology), ṣarf (morphology), naḥv (syntax), and balāğat. The primary focus of these disciplines has been the study of language, linguistic phenomena, and speech as expressions of language. Language is regarded as*

a system of intricate symbols. In the theoretical exploration of linguistic phenomena, Western linguistic schools have emphasized the communicative, cognitive, nominative, and accumulative functions of language. Consequently, fields such as sociolinguistics, psycholinguistics, ethnolinguistics, and anthropological linguistics have emerged in the Western academic landscape. In contrast, medieval Oriental linguistics concentrated on the emotional-expressive—or evaluative—functions of language, examining it as a means of emotional and psychological effect. This focus led to the development of theoretical perspectives on the aesthetic impact of language and its artistic composition, which served as the foundation for the science of balāğat in the Arab world. Today, interest in the history, structure, significance, meanings of terms, and methods of applying artistic devices within balāğat is rapidly growing in the field of linguistics. Researchers face the challenge of establishing scientific foundations for balāğat, evaluating its status within the science of 'adab, and realizing typologies of balāğat sciences through modern methodologies. Addressing these challenges will enhance our understanding of the scientific and artistic perspectives of our ancestors.

The science of ma'ānī includes the interpretation of the character of the word as ḫabar (خبر) and 'inšā' (إنشاء), an investigation into the relationship between musnad (مسند) and musnad ilayhi (مسند إليه), as well as the means of their expression. It also explores the peculiarities of the qaṣr (قصر) method for specifying meaning, the stylistic and semantic connections found in the methods of faṣl (فصل) and waṣl (وصل), and the features of meaning formation via methods such as 'iyjāz (إيجاز), 'iṭnāb (إطناب), and musāwāt (مساواة). These studies are grounded in the scientific principles of balāğat. Detailed explanations of musnad and musnad ilayhi, along with their characteristics, are provided within the framework of the science of ma'ānī. This article analyzes key issues related to the science of ma'ānī, focusing on concepts such as ḫabar, 'inšā', musnad, and musnad 'ilayhi.

Keywords: *language, meaning, science of balāğat, semantics, ḫabar, 'inšā', musnad, musnad 'ilayhi.*

KIRISH

XXI asrga kelib, jahon ilm-fanida islom sivilizatsiyasi tarixida muhim o‘rin egallagan mutafakkirlar, xususan, Movarounnahr olimlarining xizmatlari e’tirof etildi. «Ularning aniq fanlar va diniy ilm sohasida qoldirgan bebaho merosi butun insoniyatning ma’naviy mulki hisoblanadi» (Xalq so‘zi, 2017). Shuning uchun «buyuk ajdodlarimiz bo‘lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butunjahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan bebaho hissasini chuqur o‘rganish, tahlil qilish va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga ega. Bu masala yoshlar uchun ilm-fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish, islom qadriyatlarini to‘g‘ri anglash, va dunyoning barcha xalqlariga islom dinining haqiqiy mazmunini yetkazishda muhimdir. Bugungi kunda esa, xalqaro miqyosda konfessiyalar, millatlar va madaniyatlararo muloqotni yo‘lga qo‘yish, tinchlik va totuvlikka erishishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda» (Xalq so‘zi, 2016).

Jahon sivilizatsiyasi rivojida aniq fanlar bilan bir qatorda tafsir, fiqh, aqoid va adab masalalarini qamrab olgan Qur’on ilmlari ham muhim o‘rin egalladi. Adab ilmlaridan hisoblangan balog‘at ilmiga IX asrning birinchi yarmida Abu Ubayda tomonidan «Majozu-l-Qur’on» asari bilan asos solindi. Bu ilm rivojlanib, XII asrda Xorazm olimi Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy (As-Sakkokiy, 1987) maoniy, bayon, badi‘ ilmlarini bir tizimga keltirgan. Ushbu ilm arab, fors, turk xalqlari o‘rtasida keng tarqaldi hamda XIX-XX asr boshlariga qadar o‘quv muassasalarida fan sifatida o‘qitildi (*Rustamiy, 2018; Rustamiy, 2020*). Bir necha asr davomida ajdodlarimiz tomonidan o‘rganilgan balog‘at ilmining til hodisalariga oid nazariy qarashlari bugun ham tilshunoslik va adabiyotshunoslikda dolzarblik kasb etmoqda.

USLUBLAR

Maoniy ilmiga xos nazariy qarashlarni yoritishda ilmiy tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, komponent tahlil kabi usullardan foydalanildi. Maqolada lotin yozuvidagi transkripsiya uchun DIN (Nemis standartlash instituti) belgilari qabul qilindi (istisno: ج uchun j tanlandi).

TAHLIL

Kalomning xabarlik va inshoviy xususiyatlari talqini. Maoniy ilmidagi kalom so‘zlovchining maqsadiga ko‘ra xabar va inshoga ajratib o‘rganiladi. Insho gaplar buyruq, so‘roq, inkor va undov turlariga bo‘lingan (Qarang: *Sakkokiy, 1987*) va kalom bo‘laklarining gapdagi vazifasi, o‘rni, ishtiroki, tushib qolishi, ma’noga ta’siri va boshqa xususiyatlari ham yoritilgan. Kalomning bunday tasnif asosida o‘rganilishi maoniy ilmi uchun kalomning tarkibiy qismlarini to‘g‘ri joylashtirish muhim masala ekanini ko‘rsatadi. Shuning uchun uni maqsadga mos ravishda to‘g‘ri shakllantirishga doir qonun-qoidalar o‘z ifodasini topadi. Ta’kidlash joizki, balog‘at ilmining maoniy bo‘limida yoritilgan ayrim masalalar zamonaviy tilshunoslikning sintaksis bo‘limida gapni mazmuniga ko‘ra darak, so‘roq, buyruq va undov turlariga tasniflash asosida o‘rganiladi (*O‘zbek tili grammatikasi, 1976:99*).

Maoniy ilmi o‘z ichiga kalomning habar va inshoga bo‘linishi, insho va uning qismlari, musnad ilayhining holatlari, musnadning holatlari, itloq va taqyid, fe’llarga taalluqlilarning holatlari, qasr, fasl va vasl hamda iyjoz, itnob va musovot haqidagi nazariy qarashlarni qamrab olgan. Bulardan ma’lum bo‘ladiki, maoniy ilmi kalom semantikasi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi.

Maoniy ilmida ko‘riladigan dastlabki masala, ta’kidlanganidek, kalomning xabar va insho turlarga bo‘linishi masalasidir. Olimlar xabarni shunday ta’riflaganlar:

الخبر: كلام يحتمل الصدق و الكذب لذاته. (*Ahmad Hoshimiy, 2004:63*)

Ya’ni: xabar rost yoki yolg‘on ma’lumotni bildirgan kalom (*kalom haqida qarang: Frolov D., 2006:24-26*) bo‘lib, u berilgan ma’lumotning voqelikka mos kelishi yoki kelmasligi bilan aniqlanadi. Masalan: كان طه حسين مدرسا في الجامعة المصرية (Toha Husayn Misr Universitetida o‘qituvchi bo‘lgan) deyilsa, xabar bo‘ladi, chunki u voqelikda mavjud bo‘lgan hodisani bildiryapti va bu rost xabardir. Agar, aksincha, bo‘lganida, berilgan ma’lumot yolg‘on xabar bo‘lar edi. Bu yerda Toha Husaynning Misr Universitetida o‘qituvchi bo‘lgani tasdiqlangan va bu hodisa jumla (*jumla haqida qarang: Frolov D., 2006:26*) orqali talaffuz qilinadimi-yo‘qmi, u voqelikda sodir bo‘lgan. Demak, xabar – rost va yolg‘on bo‘lishi mumkin bo‘lgan va aytilsa-aytilmasa voqelikdagi mavjud holatni o‘zgartirmaydigan kalom.

Xabarning rost bo‘lishi uchun voqelik va xabardan anglashilgan ma’lumotning o‘zaro mutanosib bo‘lishi maqsad qilib olinadi, uning yolg‘on bo‘lishida esa nomutanosiblik maqsad qilinadi.

Maoniy ilmida keltirilishicha, xabar yetkazilishida tinglovchining uning hukmiga munosabati e’tiborga olinadi.

Hukm (Qarang: *Ibrohimov N., 2017:653*) tushunchasi haqida keyingi asr tilshunoslarining fikrlarini umumlashtirgan o‘zbek olimi A. G‘ulomov shunday yozadi: «Hukm logik kategoriya bo‘lib, uning ifodalanish formasi gapdir. (Hukm gap orqaligina ifodalanadi. Biroq gapni umuman hukm bilan tenglashtirib bo‘lmaydi). Hukm predmet, hodisalarning belgilarini (*belgi* so‘zi keng ma’noda), shu belgining bor-yo‘qligini, o‘sha predmetga tegishliligini yoki aksini tasdiq yo inkor yo‘li bilan ko‘rsatadi. Bu hukm yo‘li bilan bildirishdir» (*G‘ulomov A., 1987:33*).

Tinglovchining xabar hukmiga munosabati ikki holatdan biri bo‘lishi mumkin. Birinchi holat – tinglovchi jumlada ifodalangan hukmni bilmaydi, ya’ni undan xabardor emas. Bu holatda yetkazilgan xabar فائدة الخبر (fā’idatu-l-ḫabar) bo‘ladi. Ikkinchi holat – yetkaziladigan xabarni so‘zlovchi ham, tinglovchi ham biladi. Bu لازمة الفائدة – «lāzimatu-l-fā’ida» deyiladi (*Ahmad Hoshimiy, 2004:64*).

Xabarning qarinalar orqali ifodalanishi va kalomning maqsadga ko‘ra tasnifi mavjud. Bu tasnifdan rahm-shafqat istash, ojizlik va rozilikni izhor qilish, mahbubining biror ishidan hasrat qilish, erishilgan narsadan quvonish, boy berilgan narsani his qilish, tanbeh berish, ehtiyotkorlik, faxrlanish, maqtashni ifodalash va boshqalar o‘rin olgan.

Xabar tinglovchining holatidan kelib chiqib, «ibtidoiy», «talabiy» yoki «inkoriy» bo‘lishi lozim (*Mullasodiqova N., 2019(4); Mullasodiqova N., 2003*). Agar tinglovchi xabar qilinayotgan ma’lumotga shubha qilmasa yoki uni inkor qiladigan holatda bo‘lmasa, ta’kidni qo‘llash shart emas. Xabarning bu turi ابتدائي – «’ibtidā’iy» (boshlang‘ich, sodda) deyiladi va u tinglovchi xabarning madluli, ya’ni dalil bo‘luvchisi (denotat yoki referent)ni bilmagan holatlarda qo‘llanadi (*Mullasodiqova N., 2019(2))*. Shunda tinglovchi o‘zi bexabar bo‘lgan madlul haqida xabar topadi va bu narsa uning zehnidan o‘rin oladi.

Tinglovchi xabardan shubhalanib, uning haqiqatini bilishga vosita izlayotgan bo‘lsa, kalomning hukmini kuchaytirish uchun ta’kid qo‘llanadi. Bu shu xabarga zid bo‘lgan xabarni yo‘qotishda zarur usul hisoblanadi. Xabarning bu turi طلبي – «ṭalabiy» deb atalgan.

Xabarning إنكاري – «’inkāriy» turida tinglovchi xabarning aksiga ishongani uchun uni inkor qiladigan holatda bo‘lsa, inkorning kuchli yoki zaifligini e’tiborga olib, bir-ikki yoki undan ko‘p ta’kid kerak bo‘ladi.

Ta’kid talab qilinadigan kalomlarda إنَّ, أنَّ, إنَّما yuklamalari; qasam yuklamalari; ta’kidni bildiruvchi ikki ن; jumla boshida keladigan ل qo‘llanadi (Salih Sasa, X:328). Shuningdek, tanbeh yuklamalari, تَفَعَّلَ va اسْتَفْعَلَ dagi qo‘shimcha va takror tovushlar, قد, shart uchun qo‘llanadigan أمّا ham ta’kidni ifodalaydi (*Ahmad Hoshimiy, 2004:69*).

Yuqoridagilar tinglovchining holatiga ko‘ra ta’kidni qo‘llash masalasiga oydinlik kiritsa, keyingi navbatda olimlar xabarni o‘z ichiga olgan jumlaning turlariga e’tibor qaratadilar.

Ular xabarning ismiy va fe’liy jumlalarga bo‘linishini ta’kidlab: «Ismiy jumla mubtado va xabardan tarkib topadi. U biror narsaning aynan shu narsaga mansubligini ifodalaydi. Bunda uning yangilanib borishi yoki davomiyligi e’tiborga olinmaydi. Masalan: الأرض متحركة [Yer harakatlanuvchi (harakatda)dir] kabi» (*Ahmad Hoshimiy, 2004:81*) deydilar.

Fe’liy jumla haqida: «Fe’liy jumla fe’l va foildan yoki fe’l va noib foildan tashkil topadi. U muayyan zamonda bo‘lib o‘tayotgan hodisani qisqacha ifodalashga xizmat qiladi» deyiladi va bunga «chunki ismdan farqli ravishda fe’l o‘z xususiyatiga ko‘ra qarinalarga muhtoj bo‘lmagan holda uch zamondan biriga dalolat qiladi» (*Ahmad Hoshimiy, 2004:80*) jumlasi ilova qilinadi, ya’ni ismda zamonga ishora yo‘qligi uchun u zarur holatda «kecha», «bugun», «ertaga» kabi lafzlardan iborat qarinaga muhtoj bo‘ladi.

Kalomning boshqa turi bo‘lgan inshoga shunday ta’rif beriladi:

الإنشاء لغةً: الإيجاد، وإصطلاحا: كلام لا يحتمل صدقا ولا كذبا لذاته. (*Ahmad Hoshimiy, 2004:63*)

Insho» so‘zining lug‘aviy ma’nosi: ijod. Istilohda:»

rost yoki yolg‘on hukmi berilmaydigan kalom (*Ahmad* rahm) ارحم, (kechir) اغفر: *Hoshimiy, 2004:84*). Masalan qil) kabilarda ularni aytgan kimsaga nisbatan «rost .aytdi» yoki «yolg‘on aytdi» deb bo‘lmaydi

Keyinchalik xabarning rost yoki yolg‘on bo‘la olishi va bu xususiyat buyruqqa xos emasligi g‘arb tilshunosi R. Yakobson (*Yakobson R., 1975:193-221*) tomonidan o‘rganilgan. U buyruq gaplar xabar gaplardan tubdan farq qilishi, keyingilari rost yoki yolg‘on bo‘la olishi, birinchisi unday emasligini aytib o‘tadi.

Sharq olimlari inshoni talabli (إنشاء طلبي) va talabsiz (إنشاء غير طلبي) turlarga bo‘lib o‘rganganlar.

Talabsiz inshoda talab qilingan narsaning biror vaqtda amalga oshishi nazarda tutilmaydi, ya’ni talabning bajarilishi talabga bog‘lanmaydi. Uning iltimos, taajjub, maqtov va yomon deb bilish, qasam va kelishuv (bitim) ma’nolarini beruvchi siyg‘alari mavjud (*Ahmad Hoshimiy, 2004:84*). Bu tur ma’nolarini ifodalashda arab tili uchun quyidagi maxsus vositalar mavjud:

Iltimos (الرجاء), o‘tinch ma’nosi uchun عسى، حرى، اخْلَوْلَق (mumkin bo‘lsa, qani edi, koshki) so‘zlari qo‘llanadi, masalan: عسى الله أن يأتيَ بالفتح (qani edi, Alloh menga g‘alaba ato qilsa).

ikki morfologik shakl orqali (التعجب) Taajjub ifodalanadi: Masalan. أفعله، أَفْعِلْ به: كَيْفَ تَكْفُرُونَ بِاللهِ وَ كُنْتُمْ أَمْوَاتًا فَأَحْيَاكُمْ[O‘lik ekaningizda sizni tiriltirgan Allohni qanday inkor etasiz?!] (*Mansur A., 2001:5*). أَسْمِعْ بِهِمْ وَأَبْصِرْ يَوْمَ يَأْتُونَنَا [Ular Bizga keladigan kunda juda (aniq) ko‘radigan va eshitadigan bo‘lib qolurlar] (*Mansur A., 2001:307*).

(المدح و الذم) Maqtov va qarg‘ash, yomon deb bilish :ma’nosi quyidagicha ifodalanadi

- o‘rniga qarab mos ravishda نعمَ (qanday yaxshi, qanday ajoyib) so‘zi sevinish, qanoat hosil qilish holatlarida yoki بئسَ (qanday yomon) so‘zi nochorlikda, yomon holatlarda qo‘llanadi, masalan: نِعْمَ الرَّجلَ أنت (Qanday yaxshi odamsan!), بِئْسَ قولًا الكَذِب (Yolg‘on gapirish qanday yomon!) (*Insha g‘ayr al-talabiy*);

- حَبَّذا (qanday yaxshi, qanday ajoyib!) yoki aksincha لا حَبَّذا (yaxshi emas!) so‘zlari, masalan: حبذا العلم ولا حبذا الجهل (Ilm qanday yaxshi, ilmsizlik qanchalar yomon);

- yaxshi va yomon deb bilishni ifodalaydigan فَعُلَ vaznidagi uch o‘zak harfli fe’llar orqali (*Insha g‘ayr al-talabiy)*, jumladan, طاب (yaxshi bo‘lmoq), خَبُثَ (yomon bo‘lmoq, qahrli bo‘lmoq) fe’llari ham ishlatiladi, masalan: طاب علي نفسا (Ali o‘zi yaxshi) yoki خبث بكر أصلا (Bakr asli yomon) misollaridagi kabi.

Qasam (لَ va القسم), وَ, يَ, تَ yordamchi so‘zlardan biri orqali ifodalanadi, masalan: لعمرك ما فعلت كذا (Umring haqqi, bunday qilmadim!)

Kelishuv (bitim) (العقود), u oldi-sotti, bitim, sug‘urta, kafillik, vakolat, qarzga oid barcha so‘zlar orqali ifodalanishi mumkin, fe’llar ko‘pincha o‘tgan zamon shaklida bo‘ladi, masalan: بعتُ سيّارتي (mashinamni sotdim), اشتريتُ بيتًا (uy sotib oldim), وهبتُ مالا (narsa sovg‘a qildim, hadya qildim, bag‘ishladim), اعتقت (ozod qildim). Ba’zan o‘tgan zamon shaklidagi fe’lsiz qo‘llanadi, masalan: أنا بائع (men sotuvchiman),عبدي حر لوجه الله تعالى (qulim Alloh taoloning roziligi uchun ozoddir).

Talabiy inshoda talab qilingan narsaning talab vaqtidan qat’iy nazar amalga oshishi nazarda tutiladi (*Insha al-talabiy*). Uning buyruq, inkor, so‘roq, istak va undov (*Ahmad Hoshimiy, 2004:85*) kabi beshta siyg‘asi .ajratib ko‘rsatilgan

Talabiy inshoning buyruq (الأمرُ) siyg‘asida tinglovchidan ish-harakatni amalga oshirish majburan talab etiladi. Uning to‘rtta turi mavjud. Bular: buyruq holatidagi fe’l, buyruq «lām»i bilan kelgan jazm holatidagi (sukunlangan) hozirgi zamon shaklidagi fe’l, buyruq fe’lining ismi, buyruq fe’li o‘rnida kelgan masdar (*Ahmad Hoshimiy, 2004:86-87*). Oxirgi turga misol: سعيا في سبيل الخير (yaxshilikka intil!)

Buyruq siyg‘asi orqali matn mazmunidan kelib chiqib qo‘shimcha ma’nolar ham ifodalanishi mumkin. Duo, iltimos, ko‘rsatma, tahdid, ojizlik, imkon berish, tenglashtirish, hurmat, minnatdorlik, tahqirlash, davom, istak-xohish, e’tibor, ruxsat, yaratish, xabar, tarbiya, taajjub ma’nolari shular jumlasiga kiradi (*Ahmad Hoshimiy, 2004:87-88*). Masalan, duo ma’nosida: رَبِّ أَوْزِعْنِي أَنْ أَشْكُرَ بِنِعْمَتِكَ [Ey, Rabbim, ne’matlaringga shukr etishimga muvaffaq etgin (*Mansur A., 2001:378*)], iltimos ma’nosida: أعطِني القلمَ أيها الأخ (Qalamni berib yubor, birodar), tenglashtirish ma’nosida:فَاصْبِرُوا أو لا تَصْبِرُوا [... xoh sabr qilinglar, xoh sabr qilmanglar... (*Mansur A., 2001:524*)].

Inkor (النَّهيُ) siyg‘asida biror narsadan voz kechish (biror narsani bajarmaslik) majburan talab qilinadi. Uning siyg‘asi bitta: inkorni ifodalovchi لا bilan kelgan hozirgi zamon fe’li. Bu siyg‘a matnga ko‘ra o‘z ma’nosidan kelib chiqib, duo, iltimos, ko‘rsatma, davom, oqibat (natija) bayoni, afsus, istak-xohish, tahdid, karohat, tanbeh, tahqir kabi ma’nolarni ham bildiradi (*Ahmad Hoshimiy, 2004:92-93*). Masalan, duo ma’nosida: رَبَّنَا لَا تُؤَاخِذْنَا إِنْ نَسِينَا أَوْ أَخْطَأْنَا [Ey Rabbimiz, agar unutsak yoki xato qilsak, bizni koyima! (*Mansur A., 2001:49*)], oqibat (natija) bayoni: لَا تَحْسَبَنَّ الَّذِينَ قُتِلُوا فِي سَبِيلِ اللَّهِ أَمْوَاتًا بَلْ أَحْيَاءٌ [Alloh yo‘lida o‘ldirilganlarni aslo o‘lik deb hisoblamang. Aslida (ular) tirikdirlar (*Mansur A., 2001:72*)].

Talabiy inshoning so‘roq (الاستفهامُ) siyg‘asi orqali ilgari ma’lum bo‘lmagan narsani bilish talab qilinadi. U quyidagi so‘roq so‘zlardan biri bilan keladi:

أ، هل، ما، متى، أيّانَ، كيف، أين، أنّى، كم، أيّ.

So‘rovning talabiga ko‘ra so‘roq uch qismga bo‘linadi:

A) Tasdiqlash yoki tasvirlash talab qilinadi, أ so‘roq

yuklamasi orqali murojaat qilinadi. Masalan:أعليٌّ مسافر أم سعيد؟ (Ali musofirmi yoki Sa’id?) Savol beruvchi ulardan biri safar qilganini biladi, lekin aynan kim ekanini aniqlab olmoqchi. Shuning uchun javob ham aniq qilib, masalan, «Sa’id», deb aytiladi.

B) Faqat tasdiqlash talab qilinadi, هل so‘roq yuklamasi orqali murojaat qilinadi. Masalan:هل العنقاء موجودة؟(Anqo (qush) mavjudmi?)

V) Faqat tasvirlash talab qilinadi, متى، أيّانَ، كيف، أين، أنّى، كم، أيّ so‘roq olmoshlari orqali murojaat qilinadi. Masalan: متى زرت أستاذك؟ (Ustozingni qachon borib ko‘rding?) (*Ahmad Hoshimiy, 2004:95*).

Talabiy inshoda istak (التَّمنّي) siyg‘asi biror istalgan narsani talab qilish ma’nosini anglatadi. Uning amalga oshishiga ko‘ra «amalga oshishi mumkin bo‘lmagan» (مستحيل) va «mumkin bo‘lgan» (ممكن) turlari bor (*Ahmad Hoshimiy, 2004:113*). Masalan:

أَلا لَيْتَ الشَّبابَ يعودُ يوماً ... فَأُخْبِرُهُ بما فَعَلَ المَشِيبُ(Muhammad bin Solih) .

(O, qani endi yoshlik bir kun qaytib kelsayu, unga keksalik nimalar qilganini aytib bersam). Yoki:

لَيْتَ الكَوَاكِبَ تَدْنُو لِي فَأَنْظِمَهَا ... عُقُودَ مَدْحٍ فَمَا أَرْضَي لَكُمْ كَلِمِي (Ibn Hishom, 1384:22)

(Qani endi yulduzlar menga yaqin kelsa... ulardan so‘zlarim sizga manzur bo‘ladigan madh shodalari tizar edim).

Bu misollarda yoshlik va yulduzlar istalayotgan narsalar. Lekin yoshlikning qachondir qaytib kelishi yoki yulduzlarning pastga tushishi mumkin bo‘lmagan hodisalar bo‘lgani uchun bu xohishlar amalga oshishi mumkin bo‘lmagan istak turiga kiradi.

Quyidagi misolda amalga oshishi mumkin bo‘lgan istak bildirilgan: يَا لَيْتَ لَنَا مِثْلَ مَا أُوتِيَ قَارُونُ [Eh, qani endi, bizlarga ham Qorunga ato etilgan narsa (boylik) bo‘lsa (*Mansur A., 2001:395*)]. Istalayotgan narsalar – Qorunga berilgan dunyo matohlari.

Istakning vositalari to‘rtta, bulardan لَيْتَ asl vosita hisoblanadi. هل، لو، لعلّ qo‘shimcha vositalardir. هل yuklamasi ishtirok etgan misol: فَهَلْ لَنَا مِنْ شُفَعَاءَ فَيَشْفَعُوا لَنَا[qani endi oqlovchi (but-sanam)lar (bo‘lsayu,) bizni oqlasalar (*Mansur A., 2001:157*)]; لو yuklamasi ishtirok etgan misol: فَلَوْ أَنَّ لَنَا كَرَّةً فَنَكُونَ مِنَ الْمُؤْمِنِينَ [koshki edi, yana bir marta (yashashlik) bo‘lsa-yu, bizlar ham mo‘minlardan bo‘lsak (*Mansur A., 2001:371*)]. Bu vositalar istakda qo‘llangani uchun javobda fe’l hozirgi zamon nasb holatida bo‘ladi (*Ahmad Hoshimiy, 2004:113-114*).

Undov (النِّداءُ) siyg‘asi so‘zlovchining «chaqirayapman» ma’nosi o‘rnida keluvchi yuklamalar orqali tinglovchini yaqinlashtirish maqsadida qo‘llanadi, u sakkizta vosita yordamida ifodalanadi: أ، أيْ، يا، آ، آيْ، أيا، هيا، وآ

Ular qo‘llanish sifatiga ko‘ra yaqinga, uzoqqa nisbatan qo‘llanuvchi ikki turga bo‘linadi. أ، أيْ yaqinga, boshqalari uzoqqa nisbatan qo‘llanadi, masalan: أيا مولايَ(Ey, Mavloim (Allohim)]. Bu yerdagi أيا undovi murojaat qilinuvchi makon jihatdan uzoq ekanini bildirganidek, uning ulug‘ martabali Zot ekaniga ham ishora qiladi. واyuklamasi faqat marsiyalarda, motam kayfiyatini ifodalashda qo‘llanadi (*Ahmad Hoshimiy, 2004:115-116*).

Ma’lum bo‘lganidek, maoniy ilmida talabsiz insho ham, talabiy insho ham ma’nolariga ko‘ra tasnif qilingan, ularning tavsiflari va kerakli ma’noni ifodalashda qo‘llanadigan lafzlar batafsil keltirilgan. Kerakli o‘rinlarda ularning morfologik jihatlari (vazn turi, fe’lning jazm va nasb holatlari) ham ta’kidlangan.

Musnad va musnad ilayhi munosabatlari va ularning ifodalanish tarzi. Maoniy ilmida kalomning musnad ilayhi va musnad ruknlari haqida to‘liq ma’lumot beriladi. Unda aytilishiga ko‘ra har bir jumla «مسند» (musnad) va «مسند إليه» (musnad ilayhi) deb atalgan ikki bo‘lak (rukn)dan iborat.

«سند» o‘zagidan yasalgan «مُسْنَدٌ» so‘zining lug‘aviy ma’nosi «tayanch» bo‘lib, istilohda fe’l, xabar yoki uning vazifasidagi narsaga nisbatan qo‘llanadi.

Musnad grammatik jihatdan gapning kesimiga to‘g‘ri keladi. U hukmga tenglashtiriladi. Musnad fe’lda, xabarda yoki ularning o‘rnidagi narsalarda bo‘lishi ta’kidlanadi.

Musnad ilayhi fo‘il, mubtado yoki uning vazifasidagi narsaga nisbatan qo‘llanadi. U hukm qilingan yoki hukm bilan boshqariladigan shaxs yoki narsa bo‘lib, fo‘ilda, mubtadoda yoki ularning vazifasida kelgan narsalarda bo‘ladi.

Ahmad Hoshimiy musnad «محكوم به» (u tomonidan boshqariluvchi) yoki «مخبر به» (u haqda xabar beruvchi) deb, musnad ilayhi esa «محكوم عليه» (unga hukm qilingan) va «مخبر عنه» (u haqda xabar berilgan) deb atalishini qayd etadi (*Ahmad Hoshimiy, 2004:58*).

Musnad va musnad ilayhiga maf’ul, hol, tamyiz va boshqa gap bo‘laklari bog‘lanib keladi.

Maoniy olimlari jumlani «asosiy» va «asosiy bo‘lmagan» turlarga ajratadilar. Birinchisi – mustaqil, u boshqarilmaydi. Ikkinchisi, o‘z holicha mustaqil emas, u boshqariladi. Boshqaruvchilar shart elementlari, inkor, tobe’ so‘zlar, foil, hol, tamyiz, kāna va unga o‘xshashlar, ’inna va unga o‘xshashlar, ẓanna va unga o‘xshashlar bo‘ladi.

Musnad va musnad ilayhi orasidagi munosabat «isnād» – (إسناد) deb ataladi. Isnodda musnad so‘z musnad ilayhi bo‘lgan boshqa so‘z bilan bog‘lanadi, bu bilan ularning biri vositasida boshqasining zimmasidagi hukm ifodalanadi. Bu hukm tasdiq yoki inkor bo‘ladi. Masalan: الله واحد لا شريك له (Alloh yagonadir, Uning sherigi yo‘q) (*Ahmad Hoshimiy, 2004:60*).

Hukmning bu turlari o‘zbek tilshunosligida quyidagi fikrlar bilan qisman yoritilgan (*G‘ulomov A.,*

1987:33). Tasdiq va inkor hukmning zarur belgisi bo‘lib, bu belgiga ko‘ra hukm tasdiq bildiruvchi hukm va inkor bildiruvchi hukmga bo‘linadi. Bu bo‘linish mantiq fanida «sifat jihatdan ajratish» deyiladi. Hukmning ifodasini darak gaplarda ko‘ramiz. Gapning so‘roq, buyruq kabi turlarida bunday bevosita ifodalanish aniq ko‘rinib turmaydi. Demak, har qanday gap ham hukmni ifodalayvermaydi. Shunga ko‘ra gapning bevosita tasdiq va inkor bildiruvchi turlaridan boshqaroq ko‘rinishlari ham bor.

Keyingi yillarda A. Berdialiyev, R. Sayfullayeva, A.Nurmonov, N. Mahmudov, A. Ahmedov, S. Solixo‘jayeva, M. Abuzalova va boshqalar o‘zbek tilshunoslari tadqiqotlarida gapning bosh bo‘laklari xususida yangicha qarashlar paydo bo‘ldi. Bu qarash bo‘yicha o‘zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi bo‘lak kesimdir (*Iskandarova Sh., 1999; Sobirov A., 2004; Abuzalova M.,1994; Ergashev M., 2016:59-62*).

Balog‘at ilmi olimlari tomonidan musnadning jumladagi o‘rni sakkizta deb belgilangan (*Ahmad Hoshimiy, 2004:61*). Bular:

- mubtadoning xabari. Masalan: الله أحد (Alloh yagonadir), xabar –أحد

- fe’l. Masalan: ذهب أحمد (Ahmad ketdi), fe’l – ذهب

- fe’lning ismlari. Masalan:هيهات، وَوَيْ، آمينَ (qanchalar yiroq! (masalan, biror narsaning amalga oshishi))

- mubtado. Masalan: أ راغب أنت عن آلهتي يا إبراهيم؟ [Sen mening ilohlarimdan yuz o‘giruvchimisan, ey, Ibrohim?! (*Mansur A., 2001:308*)]. Mubtado – راغب, ya’ni jumla shu so‘z bilan boshlangan.

aḫbāru-n-nawāsiḫ (Qarang: *Grande B., 1963:586*), ya’ni kāna va unga o‘xshashlar, ’inna va unga o‘xshashlarning xabarlari. Masalan:

كان البستانُ جميلا (Bog‘ chiroyli edi), xabar – جميلا

إنَّ البستانَ جميلٌ (Haqiqatan, bog‘ chiroyli), xabar – جميل

ẓanna va unga o‘xshashlarning ikkinchi maf’uli. Masalan:

ألقينا الحديقةَ بهيةَ المنظر [Biz bog‘ni ajoyib deb hisobladik (bildik)].

Bunday fe’llarning ikkinchi maf’uli (بهيةَ المنظر) jumla tarkibidagi ismiy jumlaga (الحديقةَ بهيةَ المنظر) nisbatan kesim vazifasida keladi.

- arā va unga o‘xshashlarning uchinchi maf’uli. Masalan: أَعْلَمَ المعلمُ تلاميذَهُ العلمَ نافعا (O‘qituvchi o‘quvchilariga ilmning foydali ekanini ma’lum qildi), uchinchi maf’ul – نافعا.

- buyruq fe’li o‘rnidagi masdar. Masalan: سعياً في الخير jumlasi aslida اسع سيعا في الخير (yaxshilikka intil!) shaklida bo‘lib, buyruq fe’li tushib qolgan va uning vazifasi ham masdar mutlaqqa yuklatilgan.

Olimlar musnad ilayhining jumladagi o‘rni oltita ekanini ta’kidlaydilar. Bular (*Ahmad Hoshimiy, 2004:61*):

- mustaqil (tāmm) yoki yordamchi fe’lning (šibh) fo‘ili Masalan: قرأت زينب المكتوبة (Zaynab xatni o‘qidi), fo‘il – زينب

’asmā’u-n-nawāsiḫ, ya’ni kāna va unga o‘xshashlar, ’inna va unga o‘xshashlarning ismlari. Masalan: كان البستانُ جميلا (Bog‘ chiroyli edi), ism – البستانُ

إنَّ البستانَ جميلٌ (Haqiqatan, bog‘ chiroyli), ism – البستانَ;

- xabari bor mubtado. Masalan: البستانُ جميلٌ (Bog‘ chiroylidir), mubtado – البستانُ

- ẓanna va unga o‘xshashlarning birinchi maf’uli. Masalan: ظنَّ هذه المسألةَ سهلةً (U bu masalani oson deb o‘yladi), birinchi maf’ul – المسألةَ

-arā va unga o‘xshashlarning ikkinchi maf’uli. Masalan: أَعْلَمَ المعلمُ تلاميذَهُ العلمَ نافعا (O‘qituvchi o‘quvchilariga ilmning foydali ekanini ma’lum qildi), ikkinchi maf’ul – العلمَ

- noib fo‘il. Masalan: وَوُضِعَ الْكِتَابُ [(So‘ng har bir kishining) nomai a’moli (o‘z qo‘liga) qo‘yilur (*Mansur A., 2001:299*)], noib fo‘il – الْكِتَابُ

Musnad ilayhi zikr qilingan, hazf qilingan (tushib qolgan), aniq yoki noaniq, oldin yoki keyin kelgan va boshqa holatlarda bo‘lishi mumkin.

Kalomda ma’noga ega bo‘lgan har bir so‘zni zikr qilish o‘rinli hisoblanadi. Chunki o‘sha so‘zlar orqali ma’no ifodalanadi. Shuning uchun agar musnad ilayhining hazf qilinishi taqozo qilinmasa, uni zikr qilish zarur, bular quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

1. Tinglovchi uchun ta’kidni kuchaytirish va aniqlik maqsadida, masalan: أُولَٰئِكَ عَلَىٰ هُدًى مِنْ رَبِّهِمْ ۖ وَأُولَٰئِكَ هُمُ الْمُفْلِحُونَ [Aynan ular Parvardigorlari tomonidan (ato etilgan) hidoyat uzradirlar va aynan ular najot topuvchilardir (*Mansur A., 2001:2*)], «أُولَٰئِكَ هُمُ الْمُفْلِحُونَ» jumlasi orqali musnad ilayh – taqvodorlarga nisbatan qo‘llangan ko‘rsatish olmoshi – takror zikr qilingan. Bu zikrdan maqsad «o‘shalar»ga hidoyat yetganini izohlash va yana «o‘shalar» «najot topguvchilar» ekanligini bildirishdir.

2. Qarinada ishonchning kamligi, zaifligi yoki tinglovchining yaxshi fahmlay olmasligi, masalan: سعد نِعْمَ الزعيم (Sa’d qanday yaxshi rahnamo) deb ilgari Sa’d (musnad ilayhi) haqida gap ketgan bo‘lib, tinglovchini u bilan tanishtirishda davom etish yoki Sa’dning sha’nini ko‘tarish maqsadida aytiladi.

3. Muxotabga raddiya (qarshi javob) bo‘lsa, masalan: الله واحد (Alloh yagonadir) deb الله ثالثُ ثلاثةٍ (Alloh uchlikning uchinchisi) degan kishiga rad javob tarzida aytiladi. Jumlada «Alloh» musnad ilayhidir.

4. Talazzuz (huzurlanish). Masalan: الله ربي، الله حسبي (Alloh Rabbimdir, Alloh kifoyadir) (*Ahmad Hoshimiy, 2004:130*); حبيبتي هي بدر (Sevgilim to‘lin oydir) (www.alshirazi.com).

Bulardan tashqari musnad ilayhi tinglovchiga ma’noni birma-bir tushuntirish maqsadida (التسجيل على السامع), taajjub (تعجب), ta’zimتعظيم)), kamsitish (الإهانة) ma’nolarida ham zikr qilinadi.

Musnad ilayhi muxtasar qilish, keraksiz deb hisoblash va ehtiyotkorlik holatlarida tushirib qoldiriladi va u ikki qismga bo‘linadi:

1. I’rob orqali bilinadigan mahzuf, masalan: أهلا و سهلا (Xush kelibsiz), bu so‘zlarning nasb holatida ekani hazf qilingan so‘z ularning nasb qiluvchisi ekanidan dalolat beradi. Bu jumla جئتَ أهلا ونزلتَ مكانا سهلا (hurmat qilib kelding va yengil (mahzun bo‘lmagan) joyga qadam bosding) tarzida bo‘lishi mumkin. Bunday hazf balog‘atli hisoblanmaydi (*Ahmad Hoshimiy, 2004:131*).

2. I’rob orqali bilinmaydigan mahzuf, u ma’noga diqqat bilan e’tibor qilib aniqlanadi, masalan: يعطي و يمنَعُ (beradi va mahrum qiladi), ya’ni يعطي من يَشاءُ ويَمْنَعُ من يَشاء [(Alloh) kimga xohlasa beradi, kimni xohlasa mahrum qiladi]. «Bunday hazfda balog‘at nafosati, uning uslublarining jozibasi namoyon bo‘ladi. Bu hazfni zikr qilishning imkoni yo‘q, agar u oshkor qilinsa, nafislik zavol topadi, go‘zallik barbod bo‘ladi» (*Ahmad Hoshimiy, 2004:131*). Shuning uchun imom Abdulqohir Jurjoniy «Dalo‘ilu-l-i’joz»ning hazf bobida shunday deydi: «bu bob maslak (yo‘l)larning nafisi, ma’nolarning latifi, sehrga teng keladigan (yashirin) ishlarning eng ajoyibidir. Sen unda zikr tarkining zikrdan afzal, sukutning ifodadan ziyoda ekanini ko‘rasan; nutq qilinmagan narsaning qanday nutq qilishi, bayon qilinmagan narsaning qanday bayon qilishining guvohi bo‘lasan; go‘yo uni bilmasang bildiradi, yashirsang oshkor bo‘ladi» (*Abd al-Qahir al-Jurjoniy, 2001:106*). Shuning uchun bunday hazf balog‘atdan hisoblanadi va u kishiga estetik zavq beradi.

Qarina dalolat qiladigan hazf quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: musnad ilayhiga dalolat qiladigan qarinalar orqali uni oshkor qilish [زيد ذهب (Zayd ketdi), زيد أتى و ذهب (Zayd kelib-ketdi) emas]; ishni muxotab bo‘lmaganlardan yashirish [ما فعل؟ (Nima qildi?) savoliga javob: جاء (keldi)]; fursatni boy berishdan cho‘chish [ovda ovchining e’tiborini tez qaratish uchun unga هذا غزال (mana kiyik)ning o‘rniga (غزال!) (kiyik!) deyish]; noxushlik yoki kasallik tufayli kalomni cho‘zish o‘rni emasligi [bemordan كيف أنت؟ (Qandaysan?) deb so‘ralganda uning عليل (kasal) deyishi]; saj’, qofiya va vaznni saqlash [زيد طاب ثم آب (Zayd tuzaldi va qaytdi)]; musnad ilayhining haqiqatda borligi [عَالِمُ الْغَيْبِ وَالشَّهَادَةِ الْكَبِيرُ الْمُتَعَالِ (U) maxfiy va oshkora (narsa)ni biluvchi buyuk va yuksak zotdir (*Mansur A., 2001:250*)]; sabr-bardoshga chaqirish [فصبر جميل (chiroyli sabr)] va b.

Olimlar tomonidan musnad ilayhi aniq holatda keladigan o‘rinlar ham ko‘rsatib o‘tilgan. Bular: uning atoqli ot [محمد رسول الله (Muhammad Allohning elchisidir)]; ko‘rsatish olmoshi [جاءني هذا (oldimga mana bu keldi)]; nisbiy olmosh [الذين يزورونك أكرمهم (Seni ziyorat qiladiganlarni hurmat qil)]; izofa bo‘lib kelishi [إبن الجبان حاضر (ibn Jabbon keldi)]; ال bilan qo‘llanishi [الأنسان حيوان ناطق (inson gapiradigan tirik mavjudotdir)]; undov so‘zlar bilan kelishi (nutq yo‘naltirilgan shaxsning ismi, unvoni noma’lum bo‘lgan holda يا رجل (Hoy, kishi) deb murojaat qilish] (Misollar olindi: *www.alshirazi.com/compilaions/lals/balagah/part1/4.htm*).

Musnad ilayhi bilan bog‘liq boshqa masalalarga uning noaniq holatda keladigan o‘rinlari, jumla boshida kelish sabablari ham kiritilgan.

Musnad borasida uning xabar, fe’l, fe’l nomi, bosh kelishikdagi xabardan xoli bo‘lgan mubtado-vasf, aḫbāru-n-nawāsiḫ (kāna va unga o‘xshashlar, ’inna va unga o‘xshashlarning xabarlari), fe’lning o‘rnida keluvchi masdar bilan ifodalanishi ta’kidlanadi.

Musnadning ham masnad ilayhi kabi zikr qilingan, hazf qilingan (tushib qolgan), aniq yoki noaniq, oldin yoki keyin kelish va boshqa holatlari mavjud. Musnad bir necha holatlarda zikr qilinadi, masalan (*Ahmad Hoshimiy, 2004:160-161*):

- qarinada dalolat ta’vilining zaifligi. Bu holatda biror so‘z yoki ibora tushib qolsa, uning hazf qilingani o‘z-o‘zidan anglashilmaydi, shuning uchun uni zikr qilish lozim. Masalan: حالي مستقيم و رزقى ميسور (Holim mustaqim (to‘g‘ri), rizqim tayin), agar misoldagi musnad – ميسورso‘zi hazf qilinsa, zikr qilinganlari unga dalolat qilmaydi;

- tinglovchining yaxshi fahmlay olmasligi, masalan: أَصْلُهَا ثَابِتٌ وَفَرْعُهَا فِي السَّمَاءِ [(U so‘z) xuddi bir yaxshi daraxtga o‘xshaydiki, uning ildizi (yer ostiga) o‘rnashgan, shoxlari esa osmondadir (*Mansur A., 2001:258*)], agar misoldagi musnad ثَابِتٌ so‘zi hazf qilinsa, fahmi zaif bo‘lgan tinglovchi buni o‘zi tushunib ololmaydi;

- muxotabga rad javob bo‘lsa, masalan:قُلْ يُحْيِيهَا الَّذِي أَنْشَأَهَا أَوَّلَ مَرَّةٍ [(Ey, Muhammad,) ayting: «U (chirigan suyak)larni dastlab paydo qilgan zotning O‘zi qayta tiriltirur...» (*Mansur A., 2001:445*)] jumlasi مَنْ يُحْيِي الْعِظَامَ وَهِيَ رَمِيمٌ؟ [Chirib ketgan suyaklarni kim ham tiriltira olur? (*Mansur A., 2001:445*)] savoliga berilgan javobdir.

Musnad ko‘p hollarda tushib qolishi aniqlangan. Jumladan:

1. Qarina musnadga dalolat qilsa:

- zikr qilingan bo‘lsa, masalan: وَلَئِنْ سَأَلْتَهُمْ مَنْ خَلَقَهُمْ لَيَقُولُنَّ اللَّهُ [... agar ulardan o‘zlarini kim yaratgani haqida so‘rasangiz, albatta, ular: «Alloh», – derlar (*Mansur A., 2001:495*)], javobda «yaratgan» so‘zi tushib qoladi.

- taqdiri (aslida)da bo‘lsa, masalaيُسَبِّحُ لَهُ فِيهَا بِالْغُدُوِّ وَالْآصَالِ رِجَالٌ [U (masjid)larda ertayu kech Unga tasbih aytadigan kishilar bordir (*Mansur A., 2001:354-355*)], ya’ni يُسَبِّحونَ رِجالٌ (tasbih aytadigan kishilar) jumlasi

من يُسَبِّحُهُ؟ (kim Unga tasbih aytur) savoliga berilgan javobdir.

2. Suiiste'mollikdan saqlanish, masalan: أَنَّ اللهَ بَرِيءٌ مِنَ الْمُشْرِكِينَ وَرَسُولُهُ[Allohning va Rasulining mushriklardan bezor ekanliklarining e'loni (ham)dir (*Mansur A., 2001:187*)], ya'ni رسوله بريء منهم أيضا (Uning Rasuli ham ulardan bezor) deyilsa, jumla to'liq bo'lar edi.

3. Kalomni cho'zish uchun maqom (belgilangan o'lcham)ning torlik qilishi, masalan, she'rda:

نحن بما عندنا وأنت بما عندك راضٍ و الرأيُ مختلفٌ

(Biz o'z oldimizdagi, sen o'z oldingdagi narsalardan rozimiz va fikr turlicha.) Aslida نحن بما عندنا راضون (Biz o'z oldimizdagi narsalardan rozimiz) bo'lishi kerak edi.

4. Arablar qo'llab kelgan narsalarga ergashish. Masalan: لَوْلَا أَنْتُمْ لَكُنَّا مُؤْمِنِينَ [Agar siz bo'lmaganingizda, bizlar, albatta, mo'minlar bo'lur edik (*Mansur A., 2001:431*)], ya'ni لو لا أنتم موجدون (Agar siz mavjud bo'lmaganingizda).

Shuningdek, maoniy ilmida musnadning aniq holatlari (tinglovchi oldida ish hukmining ifodalanishi, musnad ilayhiga nisbatan qasr bo'lishi); musnadning noaniq holatlari (noaniq holatdagi musnad ilayhidan keyin kelishi, tahqirlash ma'nosida kelganda); musnadning oldin yoki keyin kelish holatlari ko'rsatib berilgan.

XULOSA

1. Maoniy ilmining vazifasi fikrni nutq orqali ifodalashda kalom tuzish va uning har bir bo'lagini bildirilishi lozim bo'lgan ma'no e'tiboriga ko'ra joylashtirish usullarini, ya'ni ifodalanmoqchi bo'lgan barcha ma'nolarni to'g'ri yetkaza olish va uni tushunarli bo'lishiga erishish uchun kalom tuzish yo'llarini o'rgatishdan iborat. U Qur'on-i Karimda talaffuz, kalom tarkibi va ma'no uyg'unligi kabi masalalarni o'rganishda muhimdir.

2. Maoniy ilmini tadqiq qilish unda tilshunoslik hodisalariga doir quyidagi masalalar o'z aksini topganini ko'rsatdi: gapning maqsadga ko'ra turlarga ajratilib, so'roq, istak, undov gaplarni hosil qilishda qo'llanadigan til vositalari bayoni; jumlalar tarkibining joylashuvi, ya'ni gapning sintaktik tuzilishi masalasi; ma'noga zarar yetmagan holda ayrim gap bo'laklarining tushib qolishi masalasi; zarur holatlarda gap bo'laklari o'rnining (saj' yoki she'riy matnda) o'zgarishi mumkinligi; gap tuzishdagi ayrim xatoliklar masalasi; kiritmalar masalasi; til hodisalarini yoritishda ko'plab lingvistik istilohlarning qo'llanishi.

3. Bu ilmda, xususan, xabar va inshoga xos xususiyatlar, ularning turlari haqida, gapning bosh bo'laklari bo'lgan musnad ilayhi, musnad va ular orasidagi munosabat (isnod) haqida batafsil ma'lumot beriladi. Musnad jumlada mubtadoning xabari, fe'l, mubtado, aḫbāru-n-nawāsiḫning ism qismi, 'inna va unga o'xshash ta'kid jumlalarning xabarlari, ẓanna va unga o'xshashlarning ikkinchi maf'uli, arā va unga o'xshashlarning uchinchi maf'uli, buyruq fe'li o'rnidagi masdar bo'la olishi ko'rsatib berilgan.

4. Musnad ilayhining jumlada mustaqil (tāmm) yoki ko'makchi fe'lning (šibh) fo'ili (egasi), 'asmā'u-n-nawāsiḫ, 'inna va unga o'xshashlarning ismlari, xabari bor mubtado, ẓanna va unga o'xshashlarning birinchi maf'uli, arā va unga o'xshashlarning ikkinchi maf'uli, noib fo'il kabi o'rinlarda kelishi yoritib berilgan.

5. Maoniy ilmini o'rganishda amaliy jihatdan Qur'on, hadislar va arablarning xalq og'zaki ijodi hamda turli davrlarda yaratilgan badiiy adabiyot mahsullaridan foydalanilgan.

6. Maoniy ilmining Qur'on-i Karimdagi go'zal vasf, tarkib mukammalligi, iyjoz nafosatini anglab yetishda, mumtoz badiiy asarlarning ma'nolarini to'g'ri talqin qila olish va boshqa foydalar hosil qilishda ahamiyati katta. U nasr va nazmning ma'no va shakl jihatdan barkamol va fasohatli bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2017. 23 декабрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти вазифасини бажарувчи Шавкат Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи: Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик. Халқ сўзи. 2016. 19 октябрь.
3. Абузалова, М. (1994). Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. дис. ... филология фан. номзоди. Тошкент.
4. Гранде, Б. (1963). Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещений. Москва.
5. Ғуломов, А., Асқарова М. (1987). Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент.
6. Иброҳимов Н., Орипов А. ва б. (2017). Ал-қомус. Арабча-ўзбекча қомусий луғат. I жилд. Тошкент.
7. Искандарова, Ш. (1999). Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайдони). дис. ... филология фан. д-ри. Тошкент.
8. Мансур, А. (2001). Қуръони Карим маъноларининг таржимаси. Тошкент.
9. Мулласодиқова, Н. (2003). Араб балоғат илмида таъкид воситаларини ишлатиш қоидалари. Шарқшунослик. 2003 (2), 11-16.
10. Mullasodiqova, N. (2019). The subject of the question in maonic science and its classification. Science Review. 4(21), May 2019. 56-59.
11. Mullasodiqova, N. (2019). Sentence in the science of maoniy and its types. The Light of Islam, 2019(2), 14.

12. Rustamiy, S. (2020). Sharq mumtoz adabiyotida balog‘at ilmining o‘rni. Scientific progress, 1(1), 94-100.
13. Rustamiy, S. (2018). Typological peculiarties of science of balaghah, rhetoric and stylistics. The Light of Islam, 2018(1), 16.
14. Собиров, А. (2004). Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Тошкент.
15. Фролов, Д. (2006). Арабская филология: грамматика, стихосложение, корановедение. Москва.
16. Эргашева, М. (2016). Оламнинг лисоний манзараси ва семантик майдонларга бўлиниши. Молодой ученый, 2018(3.1), 59-62.
17. Якобсон, Р. (1975). Лингвистика и поэтика. Структурализм: «за» и «против». Москва. 193-229.
18. Ўзбек тили грамматикаси. (1976) (Масъул муҳаррир: Абдураҳмонов Ғ.А., Шоабдураҳмонов Ш.Ш. ва б.). II том. Тошкент.
19. ابن هشام الأنصاري. شرح شذور الذهب في معرفة كلام العرب. جلد 1. هران. 1384ه
20. أبو يعقوب يوسف السكاكي. مفتاح العلوم. دار الكتب العلمية. بيروت. 1987.
21. أحمد هاشمي. جواهر في المعانى و البيان و البديع. بيروت-لبنان. 2004.
22. صالح ساسه . المنجد في الإعراب و القواعد و البلاغة و العروض. دار الرائد الطباعة و النشر. دون تاريخ.
23. عبد القاهر الجرجاني. دلائل الإعجاز في علم المعانى. بيروت – لبنان. دار المعرفة. 2001
24. http://mahmoudqahtan.com - علوم-البلاغة-البلاغة/ إنشاء -الطلبي
25. http://mahmoudqahtan.com - - علوم-البلاغة-البلاغة/ إنشاء-غير الطلبي/
26. http://www.shamela.ws - محمد بن صالح بن محمد العثيمين. شرح رياض الصالحين
27. www.alshirazi.com/compilaions/lals/balagah/part1/4.htm.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi. 2017. 23 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi: Tinchlik, ma’rifat va bunèdkorlik yo‘lida hamkorlik. Xalq so‘zi. 2016. 19 oktyabr.
3. Abuzalova, M. (1994). O‘zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi. dis. ... filologiya fan. nomzodi. Toshkent.
4. Grande, B. (1963). Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osvещyeniy. Moskva.
5. G‘ulomov, A., Asqarova M. (1987). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent.
6. Ibrohimov N., Oripov A. va b. (2017). Al-qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at. I jild. Toshkent.
7. Iskandarova, Sh. (1999). O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon asosida o‘rganish (shaxs mikromaydoni). dis. ... filologiya fan. d-ri. Toshkent.
8. Mansur, A. (2001). Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi. Toshkent.
9. Mullasodiqova N., (2003). Arab balog‘at ilmida ta’kid vositalarini ishltish qoidalari. Sharqshunoslik. 2003 (2), 11-16.
10. Mullasodiqova, N. (2019). The subject of the question in maonic science and its classification. Science Review. 4(21), May 2019. 56-59.
11. Mullasodiqova, N. (2019). Sentence in the science of maoniy and its types. The Light of Islam, 2019(2), 14.
12. Rustamiy, S. (2020). Sharq mumtoz adabiyotida balog‘at ilmining o‘rni. Scientific progress, 1(1), 94-100.
13. Rustamiy, S. (2018). Typological peculiarties of science of balaghah, rhetoric and stylistics. The Light of Islam, 2018(1), 16.
14. Sobirov, A. (2004). O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. Toshkent.
15. Frolov, D. (2006). Arabskaya filologiya: grammatika, stixoslojeniye, koranovedeniye. Moskva.
16. Ergasheva, M. (2016). Olamning lisoniy manzarasi va semantik maydonlarga bo‘linishi. Molodoy ucheniy, 2018(3.1), 59-62.
17. Yakobson, R. (1975). Lingvistika i poetika. Strukturalizm: «za» i «protiv». Moskva. 193-229.
18. O‘zbek tili grammatikasi. (1976). (Mas’ul muharrir: Abdurahmonov G‘.A., Shoabdurahmonov Sh.Sh. va b.). II tom. Toshkent.
19. Ibn Hishom Al-Ansoriy. (1384 h.). Sharh shuzur az-zahab fi ma’rifah kalam al-arab. J.1. Tehron.
20. Abu Ya’qub Yusuf As-Sakkakiy. (1987). Miftah al-ulum. Bayrut.
21. Ahmad Hoshimiy. (2004). Jawahir fi al-ma’aniy wa al-bayan wa al-badi’. Bayrut.
22. Salih Sasa. Al-munjid fi al-i’rob wa al-qawa’id wa al-balaga wa al-arud. Ad-dar ar-raid at-tiba’ah wa an-nashr.
23. Abd Al-Qahir Al-Jurjaniy. (2001). Dalail al-i’jaz fi ilm al-ma’aniy. Bayrut.
24. http://mahmoudqahtan.com – insha-altalabiy-ulum-albalaga-albalaga
25. http://mahmoudqahtan.com – insha-gayr-altalabiy-ulum-albalaga-albalaga
26. http://www.shamela.ws – Muhammad bin Salih bin Muhammad al-Usaymin
27. www.alshirazi.com/compilaions/lals/balagah/part1/4.htm.